

MAHKUMLARNING HUQUQIY HOLATI: O‘ZBEKISTON VA BELARUSSIYA JINOYAT IJROIYA QONUNIGA KO‘RA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Berdiboyev Sardor Erkaboy o‘g‘li
Shamshetova Zulxumor
Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *O‘zbekiston Respublikasi hamda Belorussiya davlatlarida jinoyat ijroiya qonunchiligida amalga oshirilayotgan islohotlarning mahkumlar huquqiy holatiga ta’siri qiyosiy tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Jinoyat ijroiya qonunchiligi, huquqlar, mahkumlar, yuridik yordam olish, ta’lim, tibbiyot, huquqlarning muhofaza qilinishi*

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi 1997-yil 1-oktabrda qabul qilingan bo‘lib, Jinoyat ijroiya qonunchiligi amal qilish hududi bo‘yicha O‘zbekiston yurisdiksiyasida amal qiladi. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat ijroiya qonunchiligi, ya’ni, Jinoyat Ijroiya Kodeksining asosiy vazifasiga jazo ijrosini ta’minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, jinoyat sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksida **II bob** Mahkumlarning huquqiy holati belgilangan bo‘lib, mahkumlarda ushbu kodeks va boshqa qonunlarda belgilangan istinson hamda cheklashlarni hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladigan barcha huquq va erkinliklari beriladi. Mahkumlarning huquq va majburiyatlari muayyan jazo turini ijro etish tartibi va shartlaridan kelib chiqqan holda beriladi. Mahkumlar quyidagi:

Axborot olish huquqi ya’ni jazoni o‘tash tartibi va shartlari to‘g‘risida, o‘z huquqlari va majburiyatlari haqida ma’lumot olish;

Jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma’muriyatiga, boshqa davlat organlariga **murojaat qilish** huquqiga ya’ni ularga shikoyat, taklif va ariza bilan murojaat qilish;

Ariza, shikoyat va takliflariga murojaat etilgan tilda javob olish;

Tarjimon xizmatidan foydalanish ya’ni tushuntirish berish va yozishmalar olib borishda hamda zarur hollarda tarjimon ko‘magidan foydalanishi mumkin;

O‘quv, badiiy va **axborot materiallaridan foydalanish**;

Tibbiy yordam olish, ya’ni, sog‘liqni saqlash, shu bilan birga tibbiy xulosaga ko‘ra ambulatoriya-poliklinika hamda statsionar sharoitda tibbiy xizmatdan foydalanish;

Ishdan bo‘sh vaqtda toza havoda **jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish**;

Psixologik yordam olish, ya’ni, Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumlarning o‘zining roziligi bilangina, jazoni ijro etish muassasidagi psixologik xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari psixologik tadbirlarni o‘tkazishi mumkin;

Mehnat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq mahkumlar xavfsiz mehnat sharoitiga ega bo'lish, dam olish, ta'tilga chiqish hamda mehnatga haq to'lanishi;

Pensiya hamda ijtimoiy ta'minot olish;

Mahkum ajnabiy fuqarolar diplomatiya vakolatxonalarini bilan aloqa qilib turish;

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlar saylovlarda qatnashish;

Yuridik yordam olish;

Mahkumlarning shaxsiy xavfsizligi huquqi;

Vijdon erkinligi huquqlari Jinoyat ijroiya kodeksida belgilangan hisoblanadi.

Bugungi kungi qilinayotgan islohotlar natijasida kelgusi yillarda mahkumlar **internet tarmog'idan foydalanish huquqi** ham joriy qilinishi kutilmoqda. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 78¹-moddasiga kiritilayotgan qo'shimchada:

Jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlar elektron davlat xizmatlari, shu jumladan notariat xizmatlaridan foydalanish uchun jazoni ijro etish muassasalari ma'muriyati tomonidan alohida xona ajratiladi, mazkur xona veb-kamera hamda Jahon axborot internet tarmog'iga ulangan kompyuter texnikasi bilan jihozlanadi².

Bundan tashqari Jinoyat ijroiya kodeksining yangi taklif qilinayotgan tahririda «Jinoyat ijroiya kodeksi» nomini «Jazolarni etish etish kodeksi» deb, o'zgartirish bilan birgalikda «Mahkumlarning huquqiy holati» deb nomlangan ikkinchi bobiga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Jumladan, mahkumlarning ta'lim olish huquqi, xavfsiz mehnat sharoitiga ega bo'lish huquqi va tushuntirish berish huquqlari kengaytirilmoqda.

Belorussiya.

Belorussiya davlatining Jinoyat ijroiya qonunchiligiga ko'ra, davlat mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini kafolatlaydi.

Mahkumlarning huquqlari:

Axborot olish, sud tomonidan belgilangan jazoni ijro etish muassasi ma'muriyatidan o'zining huquq va majburiyatlarini, tartib va shartlari haqida, hamda barcha o'zgarishlar haqida axborot olish huquqiga ega;

Mahkumlarga jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati tomonidan **xushmuomalalik bilan muomala qilish huquqiga ega**. Ya'ni, hech qanday insonning kamsituvchi hamda g'ayriinsoniy munosabatda bo'lish mumkin emas;

² <https://lex.uz/ru/docs/221621>

Mahkumlarning roziligiga qaramasdan ularning hayoti va sog'lig'iga qarshi hech qanday tibbiy yoki boshqa turdagi tajribalar o'tkazmaslik;

Mahkumlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan mahkumlar o'z tilida murojaat qilish huquqiga ega, sud, prokuratura va jazoni ijro etuvchi muassasa ma'muriyatiga taklif, shikoyat va arizalar bilan murojaat qilishlari mumkin hamda murojaat qilingan tilda javob olish huquqiga;

O'zining sog'lig'i haqida qayg'urish, ya'ni, **tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi;**

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish huquqi;

Ijtimoiy ta'minot olish huquqi;

Yuridik xizmat ko'rsatuvchi shaxslardan yoki advokatlardan **yuridik yordam olish huquqi;**

Chet el fuqaroligi bo'lgan mahkumlar o'zlarining **diplomatic vakolatxonalar bilan muloqotda bo'lish huquqi**

Vijdon erkinligi huquqi, ya'ni, jazoni o'tash muassasida mahkum uchun alohida yoki boshqa mahkumlar bilan birgalikda diniy rasm-rusumlar o'tkazish yoki o'tkazmaslik, bundan tashqari mahkumlarga ibodat joylariga borish ham ruxsat etilishi mumkin;

Mahkumlarning shaxsiy xavfsizligi huquqlariga ega hisoblanadilar.

	Mahkumlarning huquqlari	O'zbekiston	Belorussiya
1	Vijdon erkinligi	✓	✓
2	Shaxsiy xavfsizlik	✓	✓
3	Diplomatik vakolatxonalar bilan muloqotda bo'lish	✓	✓
4	Yuridik yordam olish	✓	✓
5	Psixologik yordam olish	✓	✓
6	Jismoniy mashq bilan shug'ullanish	✓	✓
7	Tibbiy yordam olish	✓	✓
8	Murojaat qilish/ tarjimondan foydalanish	✓	✓
9	Axborot olish	✓	✓
10	Ijtimoiy ta'minot	✓	✓
11	Axborot materiallaridan foydalanish	✓	✓
12	Insoniy muomala huquqi	✗	✓
13	Mahkumlar ustidan tajriba o'tkazmaslik	✗	✓
14	Saylov va referendumlarda ishtirok etish	✓	✗

Xulosa qilib shuni ta’kidlashimiz mumkinki, O’zbekiston Respublikasi jinoyat ijroiya kodeksida belgilangan mahkumlarning huquqlariga yana qo’shimchalar kiritilishi kerak. Vijdon erkinligini ta’minlashda ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga individual yoki guruh qilib ibodat uchun sharoit qilib berish, bundan tashqari bu haqida ya’ni ruhoniylar yoki shu sharoitlar yaratilganligi haqida ma’muriyat tomonidan boshqa ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga axborot berishlik, aynan shu vijdon erkinligiga bog’liq barcha axborotlarni yetkazishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksiga yana insonni qadrlash, ya’ni mahkumlarga xushmuomalada bo’lishlik, mahkumlarning huquqlari ichiga kiritilishi, undan tashqari mahkumlarning sog’lig’i va hayotiga qarshi tibbiyot yoki boshqacha tarzdagi tajribalar o’tkazmasligini ta’minlash zarur deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
URL: <https://constitution.uz/oz/clause/index>
2. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi
URL: <https://lex.uz/docs/-163629>
3. Belorussiya Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi
URL: [https://nrm.uz/contentf?doc=432000_ugolovno-ispolnitelnyy kodeks respubliki belarus&products=1 vse zakonodatelstvo uzbekistan](https://nrm.uz/contentf?doc=432000_ugolovno-ispolnitelnyy_kodeks_respubliki_bielarus&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistan)
4. O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalar
URL: <https://lex.uz/ru/docs/221621>
5. Файзуллаева, Т. (2022). Маҳкумларнинг ҳуқуқлари кенгайтирилмоқда. Актуальные вопросы и перспективы цифровизации судебно-правовой деятельности, 1(01), 195-198.
URL: <https://inlibrary.uz/index.php/combating-offenses/article/view/14443>
6. Кутыбаева, Е. Д., Утемуратова, С. Ш., Сапаров, Д. Т., Жарекеев, Б. Б., & Бабанов, Ш. А. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ПЕРЕКРЕСТКЕ СМЕНЫ ПОЛИТИЧЕСКИХ РЕЖИМОВ. Интернаука, (37-1), 53-56.